

## HIKOYATLARDA BOYAZID BISTOMIY SIYMOSI

**Matluba Jabborova**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU  
dotsent v.b. PhD*

**Annotatsiya:** Sharqda “Sulton-ul-orifin”, “Burhon-ul-muhaqqiqin” laqabi bilan shuhrat topgan, tasavvufdagi “tayfuriya” oqimining asoschisi Abo‘yazid Tayfur Iso o‘g‘li, Sarushon o‘g‘li Bistomiy sakkizinchasi asrning oxirgi choragida Bistomning Kumush mavzeyida, zardushtiy donishmandi xonadonida tavallud topgan.

**Kalit so‘zlar:** “Sulton-ul-orifin”, “Burhon-ul-muhaqqiqin”, “tayfuriya”

Sharqda “Sulton-ul-orifin”, “Burhon-ul-muhaqqiqin” laqabi bilan shuhrat topgan, tasavvufdagi “tayfuriya” oqimining asoschisi Abo‘yazid Tayfur Iso o‘g‘li, Sarushon o‘g‘li Bistomiy sakkizinchasi asrning oxirgi choragida Bistomning Kumush mavzeyida, zardushtiy donishmandi xonadonida tavallud topgan.

Tadqiqotchilar Boyazidni “Oriflar sultoni Sharq so‘fizmi tarixida “fano va baqo” ta’limotining asosiy nazariyotchisi” deya ta’riflashadi. Uning aqidasicha, so‘fi iroda, xohish va istagidan, ya’ni bu dunyoga rag‘batdan batamom xoli bo‘lib, butun xayoli, fikru zikrini mahbub (Xudo) tomon yo‘naltirmog‘i, ya’ni hayvoniy tabiat ruhoniyya, moddiy ma’naviyga aylanmog‘i darkor. Boyazid Bistomiyning fikrlari ham “An-al Haq”qa yaqin bo‘lib, “Haqiqatda ham men Xudoman, mendan tashqari Xudo yo‘q” (inna innalloh lo ilaha illo ano) degan xulosa kelib chiqadi. Shuning uchun o‘z davrida mutaasib ruhoniylar ham uni “devona”, “kofir” deb yetti marotaba ona shahridan haydab chiqarganlar.

Boyazid Bistomiy haqida juda ko‘p tazkiralar, manoqiblar, tasavvufiy adabiyotlarda rang-barang dalilu ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Dunyo she’riyatining shoh asarlaridan biri “Masnaviyi ma’naviy”da, “nurlar ibtidosi” deya talqin qilib kelinadigan “Mabdai nur”da ushbu benazir shayx haqida ham bir qancha rivoyatu hikoyatlarni o‘qishimiz mumkin.

Naql qilishlaricha, Boyazid Bistomiy qirq bir marta poyi piyoda Haj safarida bo‘lgan ekan. Sarchashmalarda uning safarları-yu odamlar bilan muloqotlari haqida ko‘plab rivoyatu hikoyatlar keltirilgan. Bir safar shayx Hajga ketayotsa yo‘lda bir juldurvoqi odam uchrab so‘radi:

- Qayoqqa ketib boryapsan?
- Hajga ketyapman, – javob beribdi Boyazid.
- Biron nimang bormi, bola-chaqam och, – yana so‘rabdi u.
- Kissamda ikki yuz tangam bor, – debdi Boyazid.
- Ularni menga bergen-da atrofimda yetti marta aylansang, Hajing qabul bo‘ladi, – debdi xaligi juldirvoqi.

Boyazid shunday qilibdi-da, so‘ngra uyga qaytib ketibdi. Ushbu rivoyatda “bir kishining ko‘nglini olmoq, ya’ni uni xursand qilmoq, Ka’bani tavof qilmoq bilan barobardir” degan g‘oya ilgari suriladi. Keyinchalik Boyazidga hajining qabul qilinganligi tushida bir nuroniy mo‘ysafid orqali bashorat qilinadi. Rumiy shunday deydi: “Tavof qilayotganimiz Qora tosh shunchaki Ka’baning zuhuri, agar uni



o‘rtadan ko‘tara olsak, ko‘ramizki, insonlar bir-birlariga sajda qilishayotgan bo‘ladi. Demak aslida Ka‘ba insonning qalbidadur”.

Yana bir rivoyatda naql etilishicha, Boyazid o‘z davrida bir g‘ayridinga mo‘min musulmonlikni qabul qilishni targ‘ib etadi:

Boyazid davrida kofir bor edi,  
Bir muslimmon yuzlanib unga, dedi.  
Ne bo‘lur gar etsang islomni qabul,  
Yorlaqab, baxtu najoting bergay ul.  
Dedi: iymon bo‘lsa chindan, ey murid,  
Bilki, ul iymoni shayxi Boyazid.<sup>1</sup>

Bu misralarda rumiyona qarash; “yo‘llarimiz har xil, lekin maqsad bir, ya’ni Alloh vasliga yetishmoq” g‘oyasi mujassamlangan. Ushbu hikoyatda ham muslimmon kishi kofirni iymonga chaqirish orqali o‘z g‘oyaviy niyatini ifodalaydi. Natijada inson qaysi mazhab, yoinki dinda bo‘lmasin, uning iymoni mustahkam bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Boyazid Bistomiy “An-al Haq”, ya’ni men xudoman deb, o‘sha davr ruhoniylari nazdida kufrga yo‘l qo‘yan bo‘lsada, aslida u Alloho shunchalar sevganki, butun vujudida undan bo‘lak hech vaqo qolmagan. Lekin o‘z davrida hech kim uning asl niyatini anglab yetmagan, fikrlarining botiniy mohiyatiga tushinmagan.

“Mabdai nur”da ham Boyazid Bistomiy haqida bir qancha rivoyatlar uchraydi. Shulardan biri “Boyazid va it” hikoyatidir. Unda naql qilinishicha, bir kuni Boyazid o‘z muridlari bilan yo‘lda ketayotsa, bir nopolit uchrab unga suykalib o‘tadi. Bu holni kuzatgan muridlar ranjib itga ozor beradilar. Shu payt Alloh inoyati bilan it tilga kirib:

Chun ko‘rub bir sagni titraydur raging,  
Ham daruningda erur sesad saging.  
Har sagini dardini qilsam bayon,  
Qo‘rqaman toqat qilolmas osmon.  
Man agar oluda qilsam zohire,  
Qatrai ob pok aylar tohire,  
Ul sageki, aytaman qilsa zarar,  
Necha sendek shayxni iymoni kuyar.<sup>2</sup>

Ya’ni, sen bir itni ko‘rib ranging o‘zgardi, lekin yoningda 300 ta muriding, ya’ni kuchuk bor. Menden senga yuqqan kirni suv bilan yuvsaga toza bo‘ladi. Ammo bu muridlaringning botiniy nopoliklariga osmon ham toqat qilolmaydi. Ularning qilmishlaridan sendek shayxlarning iymoni kuyadi.

Buni eshitgan Boyazid hayratga tushadi va bu maxluqqa do‘st bo‘lishni taklif qiladi. Lekin it bu lutfnini qabul qilolmaydi. Shunda Boyazid men hatto pokxilqat kuchukka ham oshno bo‘lolmadim, – deb zor-zor yig‘laydi:

Aydi: bir saggaki bo‘lmam oshno,  
Chun bo‘lurman tongla maqbولي Xudo.  
So‘fiylikdan joni topmasdur xabar,  
To o‘zini bilmasa sagdin batar,  
Har kishi bu yo‘lda dilozordur,  
Ro‘zi mahshar joni oxir nordur.

<sup>1</sup> Румий Жалолиддин. Маснавийи маънавий. – Т.: Мернус, 2010, 609 б.

<sup>2</sup> Боборахим Машраб. Маъдаи нур. – Т.: Ношир, 2008, 129 б



Bu hikoya zamirida molparastlik, ya’ni dunyoga xirs qo‘yishlik qalb ko‘zini xiralantiradigan nopoliklikka, jaholatga eltuvchi xirs ekanligi ta’kidlanadi. Kimki birovning diliga ozor bersa, uning oxirati do‘zax ekanligi uqtiriladi.

Muhammadsiddiq Rushdiyning “Tazkirat – ul avliyo turkiy”, Fariduddin Attorning “Tavzkirat – ul avliyo”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” singari bir qancha tazkiralarda Boyazid Bistomiy haqida ibratomuz rivoyatu hikoyatlar keltirilgan. Ularning barchasida Boyazid komillikning yuksak namunasi sifatida talqin etiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir rivoyatu hikoyatda Boyazid Bistomiydagi ko‘zlangan niyat, maqsad yo‘lida sobitqadamlik, haq yo‘lida jonfidolik ibrat qilib ko‘rsatiladi. Demak inson haqqqa muhabbat qo‘ygan ekan, u mol-dunyo, mansab-martaba, obro‘-e’tiborga, hoyu havas, takoburga ters qarab, komillik sari intilmog‘i, “har bir mo‘min qalbiga xushnudlik kiritib” (Navoiy) yashashga harakat qilmog‘i lozim. Ana shunda xalq mehridan, haq nazaridan banasib bo‘ladi.

Bunday aziz avliyolar hayotini o‘rganish, ulardagi yuksak insoniy fazilatlarni targ‘ib etish jiddiy ma’naviy, irfoniy va ma’rifiy ahamiyatga ega. Zeroiki bu xislatlar barcha zamonda kishilarni faqat komillik sari hidoyat etgan.

### **Adabiyotlar:**

1. Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. – Т.: Ношир, 2008.
2. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. –Т.: Мериус, 2010.
3. Хамидов X. Жалолиддин Румийнинг “Маснавийи маънавий” асаридаги ҳикоятларнинг генезиси, мазмуни ва композицион қурилишининг қиёсий таҳлили. Ф.ф.ф.д. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т: 2019.

